


O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 13,2 mingta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (23 %), savdo sohasida (23 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13 %), qurilishda tarmog'ida (12 %), yashash va ovqatlanishda (7 %), tashish va saqlashda (4 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 12796,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 28,8 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 102,8 %ni tashkil qildi;



– 5358,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 31,8 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 110,9 %ni tashkil qildi;



– 5662,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 61,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 % ni tashkil qildi;



– 17661,9 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 55,3 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 96,5 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 87,2 % yoki 23606 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 0,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;


– 1213,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 29,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 437,6 mln. AQSh dollariga yoki 56,4 % ga ko`p;




- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,0 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 76,2 %i) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,7 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 94,6 %) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (4770,6 mlrd.so`m), Samarqand (1231,7 mlrd.so`m) va Toshkent (1181,5 mlrd.so`m) viloyatlari hissasiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (4427,4 mlrd.so'm), Toshkent (2387,4 mlrd.so'm) va Andijon (2087,2 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Toshkent shahri (5137,6 mlrd.so'm), Toshkent (1780,1 mlrd.so'm) va Samarqand (1609,5 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
O`zbekiston Respublikasi	28,8	61,2	55,3
Qoraqalpog`iston Respublikasi	11,8	87,0	59,1
viloyatlar:			
Andijon	20,9	97,1	73,1
Buxoro	33,6	73,3	74,2
Jizzax	48,7	98,8	72,0
Qashqadaryo	17,4	86,0	71,3
Navoiy	11,3	69,6	64,0
Namangan	57,9	96,1	71,7
Samarqand	53,2	96,6	74,8
Surxondaryo	32,5	87,2	73,8
Sirdaryo	32,0	96,2	63,9
Toshkent	16,6	82,8	74,8
Farg`ona	31,0	94,3	74,9
Xorazm	27,5	91,9	69,3
Toshkent sh.	67,1	68,9	50,6


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Toshkent shahri (67,1%), Namangan (57,9 %), va Samarqand (53,2 %) viloyatlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Farg'ona (74,9 %), Samarqand va Toshkent (74,8 %), Buxoro (74,2 %), Surxondaryo (73,8 %), Andijon (73,1 %) viloyatlari tashkil etadi.

Qurilishda Jizzax (98,8 %), Andijon (97,1 %), Samarqand (96,6 %) va Namangan (96,1 %) viloyatlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 34,3 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 39,6 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi




Hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi eng ko`p Jizzax (54,6 %), Surxondaryo (51,1 %), Samarqand (50,2 %), Buxoro (48,3 %) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko`rsatkich past bo`lib qolmoqda va 21,0 % ni tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 950 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 32,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 52,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 24,8 % va 63,7 %, xizmatlar sohasida – 21,0 % va 66,6 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 24,8 % va 56,2 %, sanoatda – 21,6 % va 63,1 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 14,9 %, savdoda – 11,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 19,0 %, xizmatlarda – 12,4 % sanoatda – 15,3 %, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 68,9 % sanoat korxonalari, 66,8 % – savdo, 58,8 % – xizmatlar, 76,9 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 64,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi

Mas'ul: Ravshanov O.

Tel: 99871 230-80-75